



**YANGI METOD VA TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANGAN HOLDA
DARS MASHG'ULOTLARINI OLIB BORISH**

Mehmonov Mashhurbek Husen o'g'li

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent,

Yuldoshov Og'abek Bahodir o'g'li

Magistratura MTTYF-1 guruh talabasi

Toshkent Davlat Transport Universiteti

Annotatsiya: *Maqolada ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning mohiyati va ta'lim sifatini oshirishdagi o'rni, hamda ahamiyati yoritib berilgan. Shuningdek, yangi metod va texnologiyalarni ta'lim jarayonida qo'llash orqali dars mashg'ulotlarini olib borishdagi samaraga erishish va ta'lim jarayoniga yangicha yondashish borasida ma'lumotlar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *Innovatsiya, pedagogik texnologiya, ta'lim sifati, IT mutaxassislari, innovatsion yondashuv, dars mashg'ulotlari.*

Annotation: *the article highlights the essence and role and importance of the use of innovative pedagogical technologies in education in improving the quality of Education. Information is also provided on the effectiveness of conducting classes through the use of new methods and technologies in the educational process and a new approach to the educational process.*

Keywords: *innovation, pedagogical technology, quality of education, IT specialists, innovative approach, lesson training.*

KIRISH

Hozirda ta'lim texnologiyasi yordamchi vosita bo'lib qolmay balki, o'quv jarayonining rivojlanishida katta rol o'ynab, uning tashkiliy shakllari, metodlari, mazmunini o'zgartiradigan yangi sistema deb tushunilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, o'qituvchi va o'quvchining pedagogik tafakkuriga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Pedagogik texnologiya — ta'lim va tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash, texnologik yondashuv asosida ta'lim va tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish muammolarini o'rganadi [1-2].

Innovatsion ta'lim jarayonida qo'llaniladigan texnologiyalar innovatsion ta'lim texnologiyalari yoki ta'lim innovatsiyalari deb yuritiladi. O'qituvchi innovatsion texnologiyalarga asoslanib darsni tashkil etar ekan, turli texnik vositalardan ham (kompyuter, proyektor, elektron doska va hokazo) foydalanishi, interfaol metodlar asosida dars o'tishi ham mumkin. O'qituvchining faoliyatida innovatsiyalar qanchalik ko'p bo'lsa, mazmun shunchalik oshadi. Ta'limda innovatsion texnologiyalar va interfaol metodlar haqidagi tasavvurlar barqaror va mukammal shaklga ega emasligini ham e'tirof etish lozim. Har bir o'qituvchi ta'limda individual ravishda yangilik kiritishi mumkin. O'z fanining





mazmun mohiyati, mavzulari, shu sohadagi yaratilgan ilm-fan yutuqlari va innovatsiyalar haqida yangi ma'lumotlarni o'rgangan holda o'qitish jarayonida ularni qo'llab, misollar keltirib, ta'limda yangi metodni yaratishi, hamda shu asosida dars o'tishi mumkin. Innovatsion texnologiyalar o'qituvchi o'z faoliyatidan qoniqmasligidan kelib chiqadi, uni yaxshilashga doir yangilik kiritishga harakat qiladi. Innovatsion pedagogik texnologiya - bu o'quv jarayonini zamonaviy tashkil etish tizimi bo'lib, u ta'limning zaruriy sifatini ta'minlaydi va jadallashgan ilmiy-texnik taraqqiyot talablariga javob beradigan, ta'lim shakllarini takomillashtirish vazifasini ko'zlagan o'qitish jarayonlarini texnika va inson omillarida, ularning birgalikdagi harakatlari vositasida yaratish, tadbiq etishning izchil metodidir. Ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish davr talabi bo'lib hisoblanadi. Ta'lim jarayonida yangi innovatsion texnika-texnologiyalardan foydalangan holda dars o'tish, so'ngi texnikalar bilan jihozlangan o'quv xonalaridan foydalangan holda mashg'ulotlar o'tkazish, mutaxassislik bo'yicha, masalan jismoniy tarbiya sohasidagi so'nggi innovatsiyalar haqida ma'lumotlar keltirib, jahon tajribasidan namunalar keltirib o'tish, talabalarni yangilik yaratish ruhida tarbiyalashga turtki bo'ladi [3-5].

O'qituvchi innovatsion texnologiyalarga asoslanib darsni tashkil etar ekan, turli texnik vositalardan ham (kompyuter, proyektor, elektron doska va hokazo) foydalanishi, interfaol metodlar asosida dars o'tishi ham mumkin. O'qituvchining faoliyatida innovatsiyalar qanchalik ko'p bo'lsa, mazmun shunchalik oshadi. Ta'limda innovatsion texnologiyalar va interfaol metodlar haqidagi tasavvurlar barqaror va mukammal shaklga ega emasligini ham e'tirof etish lozim. Har bir o'qituvchi ta'limda individual ravishda yangilik kiritishi mumkin [6]. O'z fanining mazmun-mohiyati, mavzulari, shu sohadagi yaratilgan ilm-fan yutuqlari va innovatsiyalar haqida yangi ma'lumotlarni o'rgangan holda o'qitish jarayonida ularni qo'llab, misollar keltirib, ta'limda yangi metodni yaratishi, hamda shu asosida dars o'tishi mumkin. Innovatsion texnologiyalar o'qituvchi o'z faoliyatidan qoniqmasligidan kelib chiqadi, uni yaxshilashga doir yangilik kiritishga harakat qiladi.

Ma'lumki, har qanday texnologiya ta'limning yangi mazmunini shakllantiruvchi ta'lim tamoyillariga asoslanadi va ta'lim oluvchi shaxsini tarbiyalash, unda mehnat va muayyan yo'nalishlarda kasbiy ko'nikmalarni hosil qilishga yo'naltiriladi. Ta'lim jarayonining faol sub'ektlari o'qituvchi va o'quvchilar bo'lib, ularning hamkorlikdagi faoliyatlari muayyan mavzu (yoki fanlar asoslari) bo'yicha kam kuch va vaqt sarflangan holda nazariy va amaliy bilimlarni chuqur o'zlashtirish imkonini beruvchi jarayonning umumiy mohiyatini tavsiflaydi. O'qituvchining faol, samarali faoliyat ko'rsatishiga yo'naltirilgan ta'lim jarayonining metodik ishlanmasidan farqli ravishda, ta'lim jarayonini faollashtirish va jadallashtirishga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalari ta'lim oluvchilarga qaratiladi, shuningdek, ularning shaxsiy va o'qituvchi bilan birgalikdagi faoliyatini hisobga olgan holda o'quv materialini o'zlashtirishga sharoit yaratadi, ta'lim-tarbiyasi butun mashg'ulot davomida o'quvchilarning faolligi va qiziquvchanligini muntazam ravishda rivojlantirib borish maqsadini ko'zda tutadi, o'quv omillarini yaratishga asoslangan pedagogik texnologiya talablarini o'quv yoki ishlab chiqarish faoliyatiga tezkor jalb qilish imkonini



beradi [7-8]. Aks holda, zaif, yetarli darajada tushunarli bo'lmagan yoki aniq natijani ko'zlanmagan topshiriqlar mashg'ulotning samarasiz yakunlanishiga olib kelishi mumkin. Bugungi kunda dunyo miqyosida axborot kommunikatsiya tizimining yuksak darajada rivoj topib borayotganligi va bu boshqa sohalar qatorida ta'lim jarayoniga ham kirib kelib, uni yanada sifatli tashkil etishga o'z ta'sirini ko'rsatayotganligi barchamizga ma'lum. Bunday sharoitda inson faoliyatining nazariy va amaliy qirralari ham uzluksiz yangilanib turishi tabiiydir. Pedagogik faoliyat ham alohida va murakkab mehnat turi sifatida bundan mustasno emas. Pedagoglar o'z faoliyatlarida kafolatlangan natijalarni qo'lga kiritishga urinmoqdalar [9].

XXI asrni olimlarimiz tomonidan axborot texnologiyalar asri deb tan olinganligi pedagogik va axborot texnologiyalari kun sayin barcha sohalarida rivojlanayotgani, jumladan, ta'lim sohasida ham yangi axborot texnologiyalaridan keng foydalanish an'anaviy o'qitish usullaridan ko'ra samarali va yuqori natijalarga olib kelmoqda. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da ko'zda tutilganidek, pedagogik va axborot texnologiyalari, komputerlashtirish va komputer tarmoqlari negizida ta'lim jarayonini yangi axborotlar bilan ta'minlash rivojlanib bormoqda. Bolaning o'quv faoliyatini rivojlantirishda turli o'yinlardan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi.

Talabalar o'yin orqali o'z bilimlarini mukammallashtiradilar va uni chuqur o'zlashtiradilar. Shu jihatdan qaraganda, ta'lim jarayonida qo'llanadigan didaktik o'yinlarning roli beqiyosdir. Didaktik o'yinlar ta'lim jarayoni samaradorligini oshiradi, ta'lim jarayonida o'quvchilar faolligini, o'qish motivlarini rivojlantiradi. O'qish motivlari ta'lim jarayonini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishda ham muhim o'rin tutadi. Pedagogik texnologiyalardan foydalanishda ta'limning mazmunini belgilash, ta'lim-tarbiyaning shakllari va vositalarini tayyorlash, o'quvchilarning bilimlarni keng egallashi va ma'naviy fazilatlarini o'zlashtirishga yo'naltirilgan topshiriqlar tizimini ishlab chiqish, ta'limning natijasi va o'zlashtirish darajasini aniqlash, ularni ob'ektiv baholash uchun test vazifalarini tayyorlash kabilar tashkil qiladi.

Pedagogik texnologiyalarning mazmuni, shakl va vositalari, ta'lim berishda pedagogik texnologiyalardan to'g'ri va unumli foydalanish uslublari, kafolatlangan natijaga erishish uchun olib borilayotgan ta'lim sohasidagi yangiliklarni o'rganish, amaliyotda foydalanish ishning amaliy ahamiyatini belgilaydi

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bugungi kundagi ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish va yangi metod va texnologiyalardan foydalangan holda dars mashg'ulotlarini olib borish ta'lim sifatini oshirishga asos bo'ladi. Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy zarurati bo'lganidek ta'lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan mamlakatimizning uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko'tarish, unga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ta'lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan.





Shunday ekan ta'lim jarayonida yangi metod va pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda ma'ruza, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini olib borish ta'lim sifatini yanada oshirish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Azizxo'jayeva N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. T.: 2006.
2. Karimova, G. (2022). The need and factors of organizing innovative activity of future physical education teachers. *Science and Innovation*, 1(8), 1238-1243.
3. Avliyoqulov N.X. Musayeva N. Pedagogik texnologiyalar. Toshkent., 2008
4. Abdullaev, A., & karimova, g. (2023). The architecture of historical monuments of karmana city. *Science and innovation*, 2(C3), 27-28.
5. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). - T.: Iste'dod, 2008. – 180 b.
6. Abdullaev, A., & Karimova, G. (2022). Improving the process of school sports training. *Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching*, 8, 60-63.
7. Ishmuhamedov R.J, Abduqodirov A., Pardaev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari o'qituvchilari, tarbiyachilari, guruh rahbarlari uchun amaliy tavsiyalar). – T.: Iste'dod, 2010. –140 b.
8. Karimova, G. (2022). Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining innovatsion faoliyatini tashkil qilish zaruriyati va omillari. *Science and innovation*, 1(B8), 1238-1243.
9. Xasanova F., Ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish davr talabi. T.; 2023.